



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

ZAMONAVIY KOREYS TILIDA SINONIMLARNING STRUKTURAVIY XUSUSIYATLARI

Xvang Song Dong

Samarqand xalqaro texnologiya universiteti, professori

Bazarova Shaxlo Shuxratovna

Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti, dotsent PhD

Xolbo'tayeva Dilobar

Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti, 2-kurs magistrant

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy koreys tilidagi sinonimlarning leksik-semantik xususiyatlari strukturaviy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida koreys tili lug'at tarkibining tarixiy shakllanishi — tub so'zlar, hanja so'zlar va g'arbiy o'zlashma so'zlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosida yuzaga kelgan sinonimik aloqalar yoritiladi. Ayniqsa, sinonimlarning ikki tuzilmali va uch tuzilmali strukturada namoyon bo'lishi, ularning semantik farqlanishi, kontekstual shartlanganligi hamda daraja va baholovchi ma'no belgilariga ko'ra ajralib turishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari koreys tili leksik semantikasi va sinonimiya tizimini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: koreys tili, sinonimiya, leksik semantika, ikki tuzilmali sinonimlar, uch tuzilmali sinonimlar, tub so'z, hanja so'z, o'zlashma so'z.

СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИНОНИМОВ В СОВРЕМЕННОМ КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Хван Сон Дон

Самаркандский международный технологический университет, профессор

Базарова Шахло Шухратовна

Самаркандский государственный институт иностранных языков, доцент (PhD)

Холбоева Дилобар

Самаркандский государственный институт иностранных языков, магистрант 2 курса

Аннотация

В данной статье на основе структурного подхода анализируются лексико-семантические особенности синонимов современного корейского языка. В ходе исследования рассматриваются синонимические отношения, сформировавшиеся на основе исторического развития лексического состава корейского языка, а именно взаимодействия исконных слов, ханча-слов и заимствований из западных языков. Особое внимание уделяется проявлению синонимов в двухструктурных и трехструктурных моделях, их семантической дифференциации, контекстуальной обусловленности, а также разграничению по степени и оценочным семантическим признакам. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию лексической семантики и системы синонимии корейского языка.

Ключевые слова: корейский язык, синонимия, лексическая семантика, двухструктурные синонимы, трехструктурные синонимы, исконные слова, ханча-слова, заимствованные слова.

STRUCTURAL FEATURES OF SYNONYMS IN MODERN KOREAN

Hwang Song Dong

Samarkand International Technological University, Professor

Bazarova Shaxlo Shuxratovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Associate Professor (PhD)

Xolbo'toyeva Dilobar

Samarkand State Institute of Foreign Languages, 2nd-year Master's Student

Abstract

This article analyzes the lexical-semantic characteristics of synonyms in modern Korean through a structural approach. The study examines synonymic relations formed on the basis of the historical development of the Korean lexicon, particularly the interaction between native words, Sino-Korean words, and Western loanwords. Special attention is paid to the manifestation of synonyms in two-structure and three-structure patterns, their semantic differentiation, contextual dependency, as well as distinctions based on degrees and evaluative semantic features. The research findings contribute to a deeper understanding of Korean lexical semantics and the system of synonymy.

Keywords: Korean language, synonymy, lexical semantics, two-structure synonyms, three-structure synonyms, native words, Sino-Korean words, loanwords.

Til lugʻat boyligining rivoji va boyishi sinonimik munosabatlarning shakllanishi bilan chambarchas bogʻliqdir. Ayniqsa, koreys tilida lugʻat tarkibining tarixiy jihatdan tub soʻzlar, hanja soʻzlar va gʻarbiy oʻzlashmalar asosida kengayib borishi sinonimlarning murakkab va koʻp qatlamli tizimini yuzaga keltirgan. Shu sababli zamonaviy koreys tilidagi sinonimlarni faqat maʼno jihatidan emas, balki strukturaviy va tizimli nuqtayi nazardan tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi. Sinonimlarni muhokama qilishda, avvalo, koreys tilining leksik tizimi tilga olinishi lozim. Yaʼni koreys tili lugʻat boyligi tarixan tub (milliy) soʻzlar, xitoycha kelib chiqishga ega soʻzlar (hanja soʻzlar) va oʻzlashma (chet tillardan kirib kelgan) soʻzlar hisobiga kengayib borgan. Ushbu leksik qatlamlar mustaqil ravishda yoki oʻzaro aloqador holda sinonimik munosabatlarni hosil qilgan. Odatda sinonimlar quyidagi guruhlariga ajratiladi: tub soʻzlar oʻrtasidagi sinonimlar, tub soʻzlar va hanja soʻzlar oʻrtasidagi sinonimlar, hanja soʻzlar oʻrtasidagi sinonimlar, tub soʻzlar va oʻzlashma soʻzlar oʻrtasidagi sinonimlar, shuningdek hanja soʻzlar va oʻzlashma soʻzlar oʻrtasidagi sinonimlar. Bu sinonimlar orasida mavjud boʻlgan maʼno farqlari asosida leksik birliklarning tabaqalanishi, sinonimlar oʻrtasidagi raqobat, sinonimik ortiqchalik (takroriylik) hodisalari tahlil qilingan.

Sinonimlarning ikki tuzilmali koʻrinishlari

Zamonaviy koreys tilida sinonimlar quyidagi holatlarda ikki tuzilmali (ikkilamchi) strukturada namoyon boʻladi: tub soʻzlar oʻrtasida, tub soʻz va hanja soʻzlar oʻrtasida, tub soʻz va gʻarb tillaridan kirib kelgan oʻzlashma soʻzlar oʻrtasida sinonimik munosabatlarning yuzaga kelishi. Bunday ikki tuzilmali sinonimik munosabatlarga quyidagi misollarni keltirish mumkin.

① Tub soʻz – tub soʻz oʻrtasidagi sinonimlar

Bu hodisa zamonaviy koreys tilida nisbatan koʻp uchraydigan sinonimiya turlaridan biridir. Bunday sinonimlar bir necha holatlarda yuzaga keladi: ifodaning aniqlik darajasi bilan bogʻliq holatlar, ifoda nuqtayi nazaridagi farqlar, asl maʼnoning yoʻqolishi, shuningdek boshqa omillar bilan bogʻliq holatlar.

a) Ifodaning aniqligi bilan bogʻliq holatlar.

Bu holatda o'ng tomonda keltirilgan birlik ma'no jihatidan aniqroq bo'lib, nutq jarayonida ko'proq qo'llanadi va umumlashgan shaklga aylanadi.

오라버니 – 오빠 (aka – aka)

미끼 – 낚시밥 (o'lja – baliq yemishi)

b) Ifoda nuqtayi nazaridagi farq bilan bog'liq holatlar.

Bunday vaziyatlarda so'zlovchining subyektiv qarashi ifodaga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli chap va o'ng tomondagi so'zlar til jamoasi tomonidan baravar qo'llanadi.

실컷 – 마음껏 (to'yib – xohlagancha)

깎보다 – 얹보다 (mensimaslik – past baholamoq)

어렵풋하다 – 희미하다 (noaniq – xira)

d) Asl ma'no yo'qolgan holatlar.

Bu holatda bir birlik ikkinchisiga nisbatan til jamoasi orasida yuqori funktsionallikka ega bo'lib, asl birlik kundalik nutqda asta-sekin kam qo'llanadigan bo'lib boradi.

알밤 – 밤 (po'stlog'i archilgan kashtan – kashtan)

억수 – 큰비 (juda kuchli yomg'ir – kuchli yomg'ir)

e) Boshqa holatlardagi sinonimlar.

Tub so'zlar o'rtasidagi sinonimiya ayrim hollarda quyidagi ko'rinishda ham uchraydi:

문대다 – 문지르다 (ishqalamoq – surtmoq)

헤아리다 – 세다 (hisoblamoq – sanamoq)

② Tub so'z – hanja so'z o'rtasidagi sinonimlar

Bu turdagi sinonimiya koreys tilida keng tarqalgan hodisalardan biridir.

前後 – 앞뒤 (old-orqa)

夏季 – 여름철 (yoz fasli)

顔面 – 얼굴 (yuz)

墳墓 – 무덤 (qabr)

四거리 – 네거리 (chorraha)

生것 – 날것 (xom narsa)

成人 – 어른 (kattalar)

生命 – 목숨 (hayot)

交換하다 – 바꾸다 (almashtirmoq)

③ G'arbiy o'zlashma so'z – tub so'z o'rtasidagi sinonimlar

Bu holatda ingliz, fransuz va boshqa g'arb tillaridan kirib kelgan so'zlar koreys tilining tub so'zlari bilan sinonimik munosabat hosil qiladi. So'nggi paytlarda bunday o'zlashma birliklar til jamoasi orasida yanada faolroq qo'llanmoqda. Til taraqqiyoti nuqtayi nazaridan bu holat har doim ham ijobiy baholanmaydi.

샤프하다 – 날카롭다 (o'tkir)

마이너스 – 빼기 (minus – ayirish)

헤드 – 머리 (bosh)

유머 – 익살 (hazil)

스마트하다 – 깔끔하다 (zamonaviy – ixcham)

④ Hanja soʻz – hanja soʻz oʻrtasidagi sinonimlar

Bu hodisa hanja madaniyati doirasiga mansub tillarda keng tarqalgan semantik hodisalardan biridir. Koreys tili ham hanja madaniyatiga mansub boʻlgani sababli, hanja soʻzlar oʻrtasida ham sinonimik munosabatlar yuzaga kelgan.

⑤ Gʻarbiy oʻzlashma soʻz – hanja soʻz oʻrtasidagi sinonimlar

Hanjaning koreys tiliga qanchalik darajada singib ketgani masalasi borasida turli qarashlar mavjud. Quyidagi misollarda chap tomonda gʻarbiy oʻzlashma soʻz, oʻng tomonda esa hanja soʻz keltirilgan:

카메라 – 사진기 (kamera – suratga olish moslamasi)

서커스 – 곡마단 (sirk)

메뉴 – 식단 (menyu – taomlar roʻyxati)

사인 – 서명 (imzo)

심포니 – 교향곡 (simfoniya)

박테리아 – 세균 (bakteriya – mikroblar)

이미지 – 심상 (tasvir – obraz)

⑥ Gʻarbiy oʻzlashma soʻz – gʻarbiy oʻzlashma soʻz oʻrtasidagi sinonimlar

Madaniyatlararo almashinuv jarayonida turli tillarning birliklari birgalikda kirib keladi va oʻzaro sinonimik munosabatlarni hosil qiladi.

미터 – 메트르 (metr)

랑데부 – 데이트 (uchrashuv)

카드 – 트럼프 (karta)

아프로디테 – 비너스 (Afrodita – Venera)

Sinonimlarning uch tuzilmali koʻrinishlari Odatda sinonimik munosabatlar uch tuzilmali (trinar) strukturada shakllanadigan holatlar asosan tub soʻz – hanja soʻz – gʻarbiy oʻzlashma soʻz tizimi doirasida yuzaga keladi. Quyida ushbu turga oid misollar keltiriladi.

Tub soʻz – hanja soʻz – gʻarbiy oʻzlashma soʻz oʻrtasidagi sinonimlar

달걀 – 계란 – 에그 (tuxum)

밑줄 – 하선 – 언더라인 (tagiga chizish)

줄선 – 라인 (chiziq)

다리 – 교량 – 브리지 (koʻpriq)

끝 – 종말 – 라스트 (oxir)

잘못 – 오류 – 미스테인크 (xato)

말미 – 휴가 – 바캉스 (taʼtil)

김 – 증기 – 스팀 (bugʻ)

나그네 – 방랑자 – 에프랑제 (musofir, sayyoh)

결상 – 의자 – 소파 (stul/kreslo)

Bu kabi sinonimik munosabatlar tub soʻzlar, hanja soʻzlar, shuningdek ingliz, fransuz kabi gʻarb tillaridan kirib kelgan oʻzlashmalar ishtirokida uch tuzilmali tizimni tashkil etadi. Sinonimlarning uch tuzilmali strukturasi gʻarblashtirish jarayoni taʼsiri ostida yuzaga kelgan boʻlib, koreys tilida avvaldan mavjud boʻlgan hanja soʻzlar va yaponcha unsurlar bilan uygʻunlashgan holda sinonimlarning uch pogʻonali tizimini shakllantirgan.

Shu maʼnoda, qatʼiy terminologiya nuqtayi nazaridan bu yaqin maʼnolilik (유의관계) boʻlib, yaqin maʼnoli soʻzlar (유의어) xususiyatiga ega. Biroq amalda ularning bir xil tushunchaga tayangan holda oʻzaro bogʻlanganligi sababli “sinonim” atamasi qoʻllanadi. Ana shunday yondashuv asosidagina sinonimik munosabatlarni strukturaviy darajada tahlil qilish imkoniyati tugʻiladi. Strukturani oʻrganishda qiyoslash doimo bir xil semantik darajani asos qilib oladi. Quyidagi misollar buni yanada yaqqol koʻrsatadi.

Bir leksik tizim doirasida qaysi soʻz juftlari sinonimik munosabatda ekanini aniqlash muhim, ammo semantik tadqiqotning asl markazi farqlovchi (distinctive) xususiyatlarni aniqlashdan iboratdir. Shu sababli sinonimlar oʻrtasidagi maʼno qarama-qarshiliklarini aniqlash yanada muhim masaladir. Masalan, “살머시” va “슬머시” harakat holatini bildiruvchi sinonim juftlikdir. Ular daraja jihatidan deyarli farqlanmaydigandek koʻrinsa-da, baribir farqli vaziyatlarda qoʻllanadi. Bunga sabab ularning semantik tuzilishida [ijobiy] / [salbiy] baholovchi belgilarning mavjudligidir.

철수 애인이 살머시 문을 열고 들어왔다.

밤에 도둑이 슬머시 담을 넘어 들어갔다.

Bu yerda “살머시” ijobiy, “슬머시” esa salbiy vaziyat bilan bogʻliq holda qoʻllanmoqda. Bunday qarama-qarshi semantik belgi faqat shu juftlikkagina xos emas.

불그스름하다: 영희의 예쁜 볼이 불그스름하다.

불그죽죽하다: 철수의 술취한 볼이 불그죽죽하다.

행여나 떠난 님이 오시려나 기다려진다.

혹시나 영희는 자기 잘못이 들킬까 두려워한다.

Sinonim juftliklar har bir tilda juda koʻp uchraydi, biroq ularning ichki qarama-qarshiligini yuzaga keltiruvchi semantik belgilar unchalik murakkab emas. Shuning uchun yanada umumiy boʻlgan ichki farqlovchi belgilarni aniqlash, sinonimlar maʼnosini obyektiv tarzda tavsiflash leksik maʼnoni standartlashtirishning eng samarali yoʻlidir. Biroq maʼno standartlashtirish jarayoni nihoyatda murakkab vazifadir. Til maʼnosi aslida leksik birliklar orqali saqlanadi. Leksik maʼno asosida gap maʼnosi yuzaga keladi. Shu sababli leksik maʼnoni tadqiq etish leksik semantikaning eng muhim poydevorini tashkil etadi. Semantik belgilarni tahlil qilish, individual soʻz maʼnolarini standartlashtirish nafaqat ilmiy, balki taʼlimiy va amaliy jihatdan ham nihoyatda muhimdir.

XULOSA. Tadqiqot natijalariga koʻra, zamonaviy koreys tilida sinonimlar asosan ikki tuzilmali va uch tuzilmali strukturada namoyon boʻladi. Bu holat koreys tili lugʻat tarkibining tarixiy rivoji, hanja madaniyatining taʼsiri hamda gʻarbiy oʻzlashmalar oqimi bilan chambarchas bogʻliqdir. Sinonimik munosabatlarni strukturaviy va semantik jihatdan tahlil qilish koreys tili leksik tizimini chuqurroq anglashga xizmat qiladi va leksik semantika tadqiqotlari uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baxranova, D. U. Koreys va o'zbek tillarida frazeologizmlarning sinonimlik va antonimlik munosabati. Jainkwell Publishing.2023.
2. Xudoykulova, Sh., & Yun, H. H. O'zbek va koreys tilida morfologik xususiyatlarning qiyosiy tahlili. Oriens, 25.06.2022.
3. 정종태. 현대국어 동의어의 의미론적 고찰. 전남대학교 대학원 국어국문학과. 광주, 1994.
4. 이익섭. 국어 의미론. 서울: 민음사, 2004.
5. 김민수. 국어 어휘론. 서울: 태학사, 2006.